

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI
“TRANSPORT VA LOGISTIKA” fakulteti
“YER USTI TRANSPORT TIZIMLARI” kafedrasи
DIPLOM LOYIHASINI BAJARISH BO`YICHA
T O P S H I R I Q

Razzoqov Abdullajon

1. Diplom loyihasining mavzusi: Yuk tashishni tashkil etishda xarakat yo`nalishini tuzish.

Institut bo`yicha 2018yil “7” dekabrdagi 314 -sonli buyruq bilan tasdiqlangan.

2. Diplom loyihasini bajarish uchun ma`lumotlar:

Yuklarni tashishda yuritiladigan xujjatlar, yuk turlari, tashishni tashkil qilish va tijorat ishlari.Marshrutlar va xarakat grafiklari.

3.Tushintirish xatida keltiriladigan ma`lumotlar:

1) Kirish. Bu qismda talaba soha bo`yicha Respublikamizda erishayotgan yutuqlari, davlat dasturlari va ularni bajarilayotganligi va avtomobilsozlik sanoatining rivojlanish bosqichlari to`g`risida ma`lumotlar beradi.Bundan tashqari mavzuni hozirgi kundagi dolzarbligi va uning kelejakdagi samarasi yoritiladi.

2) Asosiy qism.Mavzu bo`yicha bajarilgan diplom loyihasi mavzusining tahlili va adabiyotlar sharhi beriladi. Mavzuning asosiy mazmuni yoritiladi va zarur ma`lumotlar keltiriladi.

3) Texnologik qism. Mavzu bo`yicha konstruktiv (texnologik) yechimlar keltiriladi.

4) Hayot faoliyati xavfsizligi qismi. Mavzu bo`yicha xavfsizlikni ta`minlovchi asosiy shartlar, mashina va mexanizmlarning xavfli zonalari, muhofazalovchi va saqlovchi to`sinq vositalari va ekologik talablar kabi ma`lumotlar keltiriladi.

5) Iqtisodiy qism. Mavzu bo`yicha qilinayotgan loyihaning yoki konstruksiya (texnologiya)sining iqtisodiy yechimlari keltiriladi.

6) Xulosa va takliflar. Mavzu yuzasidan yuqorida qilingan ishlar bo`yicha umumiyl xulosa va takliflar keltiriladi.

7) Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati.Mavzuni bajarish davomida foydalanilgan adabiyotlar va internetdagи veb saytlarning ro`yhati keltiriladi.

8) Ilova. Mavzu bo`yicha maxsus jadvallar, diplom loyihasi oldi amaliyoti davrida to`plagan rasmlar va internetdan olingan ma`lumotlar ilova qilinadi.

4. Diplom loyihasining chizmalarini ro`yhati (A3formatda 6 list vatman):

a) Asosiy qism chizmalarini (jadval, grafikvaboshqalar):

1-chizma._____

2-chizma._____

b) Konstruktiv qism chizmalarini:

3-chizma._____

4-chizma._____

c) Tashkiliy qism chizmalarini (reja, strukturavaboshqalar):

5-chizma._____

d) Iqtisodiy qism bo`yicha jadvallar:

6-chizma._____

5. Diplom loyihasi qismlari bo`yicha maslahatchilar:

№	Diplom loyihasining qismlari	Boshla-nish muddati	Tugalla-nish muddati	Imzo	Maslahatchi-ning familiyasi
1	Kirish	14.01.2019	31.01.2019		Gaffarov M
2	Asosiy qismi	01.02.2019	28.02.2019		Gaffarov M
3	Konstruktiv (texnologik)qismi	01.03.2019	31.03.2019		Gaffarov M
4	Hayot faoliyati xavfsizligi va ekoliya qismi	02.04.2019	16.04.2019		X.Tursunov
5	Iqtisodiy qismi	17.04.2019	30.05.2019		Halilov.N
6	Xulosa va takliflar	01.05.2019	15.05.2019		Gaffarov M
7	Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati	06.05.2019	01.06.2019		Gaffarov M

6. Topshhiriq berilgan sana: 14.01.2019yil

7. Tugallangan diplom loyihasini topshirish sanasi: 01.06.2019yil

Diplom loyihasi rahbari: M.Gaffarov _____

Topshhiriq bajarish uchun qabul qilindi: A. Razzoqov _____

Kafedra mudiri: t.f.n.N.A. Ikromov _____

MUNDARIJA

1. KIRISH	4
2. ASOSIY QISM	15
2.1. Adabiyotlar sharxi.	15
2.2. Tashishni tashkil etishning asosiy elementlari.	17
2.3. Tashishni tashkil etishning asosiy prinsplari.	18
2.4. Yuk va uning turlari.	19
2.5. Yukning aylanishi va yuk oqimi.	21
3. TEXNALOGIK QISM	23
3.1. Yo`nalish turlari.	23
3.2. Harakatlanuvchi tarkib tipini tanlash.	24
3.3. Xo`jalik bo`yicha harakatlanuvchi vositalar ma'lumotini aniqlash.	28
4. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI QISMI	30
4.1. Yuklash, tushurish maydonchalariga va yuk ko`taruvchi mexanizmlarga qo`yilgan talablar.	30
4.2. Yuklarning kategoriya va sinflarga bo`linishini ta`minlash.	32
4.3. Yong`inga qarshi suv ta`minoti.	33
4.4. Yong`inni o`chirichni tashkillashtirish.	34
5. IQTISODIY QISM	36
5.1. Yuk tashishni iqtisodiy ko`rsatkichi va ish unimdorligi.	36
6. XULOSA VA TAKLIFLAR	43
7. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YHATI	44
8. ILOVA	45

KIRISH.

Yuksak darajada taraqqiy etgan hozirgi zamon transportisiz rivojlangan jamiyat asosini yaratib bo’lmaydi. Chunki transport har qanday ishlab chiqaruvchi da yuklarni tashishda avtomobil transportining ro’li beqiyosdir. Bunda tabiat boyliklarini tashishda, xo’jalikning ichki va tashqi yuk aylanishlarini bajarishda va boshqalarda transport vositalari muhim ro’l o’ynaydi. Bundan tashqari transport mehnat resurslaridan oqilona foydalanishda, davlat mudofaa qudratini oshirishda katta ahamiyat kasb etadi. Keyingi yillarda avtomobil transporti sohasida olib borilayotgan institutsional va huquqiy islohotlarning maqsadi - bu transport xizmatlarini ko’rsatish huquqi ustidan adolatli raqobatga asoslangan avtomobil transporti faoliyatini yaxshilash, ushbu sektorga turli mulkiy shakldagi tashuvchilarni jalb etishdir.

Ushbular asos qilinib 2017-yilning 7-fevral kuni “O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning O’zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo’yicha harakatlar strategiyasi to’g’risida”gi farmoni qabul qilindi.

Harakatlar strategiyasining maqsadi olib borilayotgan islohotlar samaradorligini tubdan oshirishdan, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishini ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratilishdan, mamlakatni modernizatsiyalash va hayotning barcha sohalarini erkinlashtirishdan iboratdir.

Xususan, mamlakatni rivojlantirishning quyidagi 5 ta ustuvor yo’nalishi belgilangandi:

- 1.Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;
- 2.Qonun ustuvorligini ta’minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;
- 3.Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;
- 4.Ijtimoiy sohani rivojlantirish;
- 5.Xavfsizlik millatlararo totuvlik va diniy bag’rikenglikni ta’minlash, chuqr yo’nalgan, o’zaro manfaatli va amaliy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

Keyingi yillarda avtomobil transporti sohasida aholiga xizmat ko’rsatish sifatini yaxshilash borasida ko’plab chora-tadbirlar ko’rildi, avtotransport xizmatlarini rivojlantirishning maqsadli parametrlari izchil bajarilmoqda ushbu vazifalami yanada

yaxshilash uchun, 2017-yilni 10-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M.Mirziyoyevning "Ahолига транспорт хизмати ко'рсатиш hamda shaharlar va qishloqlarda avtobuslarda yo'lovchilar tashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori qabul qilindi.

Qabul qilingan qaror aynan Respublikaning shahar va qishloqlarida, birinchi navbatda, qishloq joylarida avtotransport xizmatlari bilan ta'minlashni yanada yaxshilashga yo'lovchilar tashish xavfsizligini oshirishga qaratilgan.

Hozirgi kunda Respublikamizda bosqichma bosqich o'tkazilayotgan islohotlar natijasida nodavlat sektorning yo'lovchilar va yuklarni tashishdagi ulushi yil sayin ortib bormoqda. Shu sababli yo'lovchilarga avtotransport xizmatlarini ko'rsatishdagi ulushining deyarli 100 foizi va yuk tashishdagi ulushining 90 foizi ushbu nodavlat sektor tomonidan amalga oshirilmoqda. Islohotlar samaradorligini esa avtomobil transporti faoliyatining quyidagi ko'rsatkichlariga qarab baholash mumkin. Davlat statistika qo'mitasidan olingan ma'lumotlarga ko'ra, 2017-yil yakuni bilan respublikaning barcha avtomobil transporti vositalari bilan jami 1 mlrd. 41 mln.tonna yuk va 5 mlrd. 565 mln.yo'lovchi tashilib, ushbu ko'rsatkich 2016 yilga nisbatan tegishli ravishda 103.7 va 102.3 foizni tashkil etdi. Yuk aylanmasi 13 mlrd. 629 mln.tonna km.ni (2016-yilga nisbatan 102.5 foiz), yo'lovchilar aylanmasi esa 117 mlrd. 157 mln. yo'lovchi km.ni (2016 yilga nisbatan 102.6 foiz) tashkil qildi. Agarda avtomobil transporti faoliyatining oxirgi o'n yil (2007-2017-yillar) davomidagi asosiy ko'rsatkichlarini qiyoslasak, unda 2017-yilda tashilgan yo'lovchilar soni 2007-yilning shu davriga nisbatan qariyb 1,24 barobarga va yuk tashish hajmi 1,4 barobarga o'sganni ko'rishimiz mumkin.

Yuk tashish jarayonini takomillashtirish yuzasidan aniq tadbirlar ko'rilganligi,natijasida,avtotransport,vositalari,bilan,respublikada yetishtirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashishda, qurilish va obodonlashtirish hamda neft-gazkompleksi qurilishi ishlarida yuklarini tashish hajmlari o'smoqda. Bularning raqamlarda ko'rib chiqsak 2017-yil yakuniga ko'ra, barcha turdag'i (temiryo'l, havo, quvur va elektr) transportlarda amalga oshirilagan tashuvlar hajmlari ichidagi avtomobil trasportining ulushi, yo'lovchi tashishda 98.4 foizga va yo'lovchi

aylanmasining 90.5 foizigato‘g‘rikeladi. Tashilgan yuk hajmi va yuk aylanmasi bo‘yicha avtomobil transportining solishtirma ulushi esa tegishli ravishda 88.7 va 20.4 foizga teng. 2000-yilda respublika bo‘yicha 2032 ta yo‘lovchilar tashish yo‘nalishlari faoliyat ko‘rsatgan bo‘lsa, 2018-yilning 1-yanvar holatiga yo‘nalishlar soni 2343 taga oshib, 4375-tani tashkil etdi. Ularning 996 tasi shahar, 3122 tasi shahar atrofi va 257 tasi shaharlararo yo‘nalishlarni tashkil etadi.

Bundan tashqari, hisobot davrida tashuvchilar tomonidan tijorat asosida foydalanish maqsadida 760 ta yuk avtomobili, 26 ta mikroavtobus va 476 ta (shundan 257 tasi “Damas” rusumli) yengil avtomobillari sotib olindi. Shuningdek, korxona yoki tadbirkorlar tomonidan yil davomida avtovokzal va avtostantsiyalarini rekonstruktsiya qilish, qurish va jixozlash uchun kiritilgan investitsiyalar miqdori 15.2 mlrd. so‘mni tashkil etdi. 2017-yil davomida avtotransport sohasiga tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan kiritilgan jami investitsiya miqdori qariyb 300.0 mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2016-yilga nisbatan 100.0mlrd. so‘mga ortdi. Bundan tashqari, vazirlik va davlat idoralari tomonidan ishlab chiqilgan 36 ta me’yoriy – huquqiy hujjatlar ekspertiza qilinib, tegishli xulosa va taklifla rberildi. Asosiysi hayotimizga keng tadbiq qilinmoqda. Bularning barjachasi Prezidentimiz aytganlaridek “Islohat islohat uchun emas avvalo inson uchun ‘degan tom ma’nodagi pirovad maqsadning avtomobilsozlikdagi yorqin namunasidir desam hech mubolag’ a bo’lmaydi [2].

2018-yil 6-martdagи PQ-3589- son qarorida mamlakatimizda avtomobil transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, tashkiliy o’zgarishlarni amalga oshirish, avtotransport xizmatlari bozorini shakllantirish, yuk va yo‘lovchilar tashishlar xavfsizligini ta’minalash maqsadida „Avtomobil transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to’g‘risida” qaror qabul qilindi.

Endilikda avtotransport soxasida vakolatli davlat boshqaruvi organlarining ortiqcha takrorlovchi jarayonlari bekor qilinmoqda.

Harakatdagi tarkibni zamonaviy, qulay avtobuslar, mikroavtobuslar, yuk avtomobillari bilan yangilash, yo‘nalishlarni oqilona tashkil etish va kengaytirish, tashishlar xavfsizligi choralarini kuchaytirish hisobiga aholining avtomobil tashishlariga ehtiyojini imkon qadar to‘laqonli ta’minalash avtomobil transportini

rivojlantirishning asosiy yo‘nalishidir.Ushbu faktorlarni hisobga olgan holda quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirildi:

birinchidan, sohada kichik tadbirkorlikni rivojlantirish uchun qonunchilik darajasida qulay shart-sharoitlar yaratildi;

ikkinchidan, yo‘lovchilar avtovokzallari va avtostansiyalarini qurish hamda rekonstruksiya qilish, yangi yo‘lovchi yo‘nalishlarini ochish, avtomobil transporti harakatdagi tarkibini yangilash bo‘yicha zarur choralar ko‘rilmoxda;

uchinchidan, tashishlar yo‘nalishlarini tender orqali joylashtirish mexanizmlarini joriy etish yo‘li bilan avtomobil transporti xizmatlari bozorida bozor munosabatlari va raqobat muhitini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilmoqda;

to‘rtinchidan, avtomobil tashishlarini boshqarish tizimiga tadbirkorlar tomonidan tegishli davlat xizmatlarini olishda ruxsat berish va litsenziya jarayonlarini maksimal darajada soddalashtirish, talab etilayotgan hujatlar soni, ularni taqdim etish muddatlarini qisqartirishni nazarda tutuvchi yagona axborot-integrallashuv tizimi joriy etilgan.

Shu bilan bir qatorda, avtotransport xizmatlari sohasini jadal rivojlantirishning mavjud imkoniyatlari va zaxiralaridan to‘liq hajmda foydalanilmayapti. Avtotransport xo‘jaliklarini modernizatsiya qilish zamонавиу талаблар darajasida emas, sohada axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va intellektual transport tizimlari etarli darajada joriy etilmayapti, avtotransport xizmatlari eksporti-importi va tranzit salohiyatidan foydalanish darjasini pastligicha qolmoqda [3].

Va buning yorqin isboti Jizzax viloyatida qurillayotgan yangi avtomobil Zavod Prezidentimizning 2017-yil 13-iyundagi “Xorijiy investitsiyalar ishtirokida”gi “Uzbekistan Peugeot Citroen Automotive” korxonasini tashkil etish to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq, “O‘zavtosanoat” AK va Peugeot Citroen Automotive guruhi o‘rtasidagi,kelishuv,asosida,qurilmoqda.

“Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida tadbirkorlikni rivojlantirish uchun yaratilayotgan imkoniyatlar va qulay ishbilarmonlik muhiti yuksak samaralar

berayotgani isbotidir. Dunyoning yetakchi avtomobil ishlab chiqaruvchilaridan biri bilan hamkorlikda barpo etilayotgan ushbu qo'shma korxona ham O'zbekiston avtomobil sanoatining istiqboliga xorijlik ishbilarmonlarning kata ishonchi samarasidir.

Yangi zavodda yo'lovchi va yuk tashishga mo'ljallangan «Peugeot» va «Citroen» yengil tijorat avtomobillari ishlab chiqariladi. Qo'shma korxonaning ustav kapitali 30 million yevro. Loyihani amalga oshirishga umumiyligi qiyati qariyb 130 million yevrolik investitsiya jalgan etilayotir.

Undan tashqari erkin iqtisodiy zonalarni tashkil etish uning negizda logistik markazlarni faoliyatini yo'lga qo'yish va shu asnoda ish o'rirlarni tashkil qilish. Bularning barchasi yurtboshimiz raxnamoligida yurtimizda izchillik bilan amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, yurtimizda qaror topgan bunyodkorlik, millatlararo do'stlik va totuvlik muhitining tinchlik va osoyishtalikni saqlash yo'lidagi say-harakatlarning amaldagi samaralarasidir. Uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan, mamlakatimizning salohiyati, qudrati va iqtisodiyotimizning raqobatbardoshligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga kasb etadigan navbatdagi ustuvor yo'naliish – bu asosiy yetakchi sohalarni moderinizatsiya qilish, texnik va texnologik yangilash, transport va infratuzilma kommunikatsiyalarini rivojlantirishga qaratilgan strategik ahamiyatga moyil loyihalarni amalga oshirish uchun faol investitsiyalar siyosati olib borishdan iboratdir.

Endilikda milliy iqtisodiyotimizning turli yo'naliishlarining tarkibiy qismlarni jaxon bozori bilan qiyosiy o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston milliy iqtisodiyoti – jami sohalar, assotsiatsiyalar, korxonalar, tashkilotlarning yig'indisi bo'lib, ular iqtisodiy tizimga umumiyligi qonunlar va rivojlanish maqsadlariga asoslangan holda birlashgan [4].

Mustaqil O'zbekistonimizda avtotransport sohasi alohida muhim ahamiyatga ega – ham iqtisodiy, ham siyosiy sohalarda. Har tomonlama o'sib borayotgan texnika taraqqiyoti avtomobil transporti iqtisodiyotining chuqur o'rganishni taqazo etmoqda. Asosiy va aylanma fondlardan samarali foydalanish, birinchi navbatda harakatlanuvchi sostavlarni ishlatalishning iqtisodiy samarasini oshirish avtomobil

korxonalarining asosiy vazifalaridan biridir. Shu bilan birga yangi texnika , ish jarayonlarini mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishga sarf qilinadigan kapital mablag'larning samaradorligini oshirish , ilg'or ish usullarini joriy etish ham muhim ahamiyatli bo'lib , avtomobil transporti iqtisodiyotining tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Xalq xo'jaligi tarmoqlaridagi , jumladan , avtomobil trasnportidagi taraqqiyot va ishlab chiqarish samaradorligini va avvalo fan-texnika taraqqiyotini tezlashtirish va uning iqtisodiy natijalari, fan va texnika yutuqlaridan foydalanishni jadallashtirish bilan bog'liqdir. Va albatta biz uchun yangi soha hisoblangan logistika sohasini rivojlantirish ayniqsa yangi tashkil etilgan "erkin iqtisodiy zonalarda " tashkil qilish va takomillashiga sabab bo'lmoqda.

Bu maqsadlarga erishish uchun rivojlangan mamlakatlarning tajribasini o'rghanish bilan birga vatanimizda logistika sohasida bozor iqtisodiyotida turli mulkchilik shakllarini hisobga olgan holda ishlab chiqarish munosabatlari sohasida mahsulot harakatlarini optimallashtirishning ilg'or yo'naliшlaridan foydalanish ham ma'lum bir ahamiyatga ega bo'ladi.Logistika bo'yicha mutaxassislar moddiy - texnika ta'minoti, transport va tovar harakati haqidagi axborotlarni yagona tizimga integratsiyalashuvini ta'minlashga intilishmoqda, bu esa ushbu sohalarning har birini ish faoliyatining samarasini va tarmoqlararo samaraning ortishiga olib kelishi kerak.Transportning ish sifatini muhim omillardan biri uning yuk tashish muntazamligidir. Zarur mahsulot, xom ashyo, ehtiyyot qismlar va yoqilg`ilar o`z vaqtida muntazam tashilgandagina ularning oмborlarda minimal holda bo`lishi mumkin.Transportning yo`lovchi tashishdagi vazifasi kishilarning o`zaro aloqalarini kengaytirish, tajribalar almashish, madaniy saviyasini oshirish, qishloq tumanlarini shahar bilan birlashtirish, qishloqdagi etishtirilgan mahsulotni shaharga olib kelishini, narxlarni turgunligini ta'minlashdan iborat.

Mavzuning dolzarbligi.

Zamonaviy xalqaro iqtisodiy munosabatlarning asosida joylashgan globalizatsiya va kuchli integratsiya iqtisodiyotni yanada tez va keskin tarzda shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Ko`pchilik ekspertlarning ta`kidlashicha, hozirgi keskin iqtisodiy tizimning kuchli globalizatsiyalashgan asosini o`zgartirish mumkin

emas. Faqat ana shu jarayonlarga moslashgan holda uning tashkil qiluvchi elementlari hisoblangan asos sohalarni rivojlantirish bilan hozirgi vaziyatda raqobatbardoshlikni saqlab qolish mumkin. Hozirda ixtisoslashgan ishlab chiqarishni va jahon miqyosida hamkorlik aloqalarini chuqurlashishini shakllantiruvchi multimodal logistika markazlari va logistika sohasi muhim ro`l o`ynaydi.

Ushbu asos sohalardan biri sifatida tobora keskinlashib borayotgan jahon iqtisodiyoti mamlakatlar oldiga amalda iqtisodiy o`sishni ta`minlovchi omil va manbalarni guruhlash hamda iqtisodiy salohiyatni belgilab beruvchi sohalarni rivojlantirish kabi vazifalarni qo`ymoqda. Ushbu jarayonlarlar ochiq dengizga chiqish imkoniyati bo`limgan Markaziy Osiyo davlatlari oldiga transport korridorlarini rivojlantirishdek muhim masalani qo`ymoqda. Iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy farovonlikni ta`minlovchi kalit vosita hisoblangan tranzit korridorlar va logistika markazlari tashkil qilish borasida O`zbekiston, Qozog`iston va Turkmaniston yetakchilik qilmoqda. Xususan, O`zbekistonning Navoiy viloyati hududida, Qozog`istonning Olma-ota va Ostona hududlarida va Turkmanistonning Ashhabod hududida logistika markazlari tashkil qilingan [10].

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi bilan «Urgut», «G`ijduvon», «Qo`qon» va «Hazorasp» erkin iqtisodiy zonalarini tashkil etish to`g`risida»gi farmoniga muvofiq, O`zbekistonda yana to`rtta erkin iqtisodiy zona faoliyatini yo`lga qo`yish belgilandi. Mazkur faoliyat meva-sabzavot va qishloq xo`jaligi mahsulotlarini chuqur qayta ishlash, saqlash va qadoqlash, to`qimachilik, gilam to`qish, poyabzal va charm-galantereya, ekologik jihatdan xavfsiz kimyo, farmatsevtika, oziq-ovqat, elektrotexnika sanoati, mashinasozlik va avtomobilsozlik, qurilish materiallari va boshqa yo`nalishlarda yangi zamonaviy ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etishga qaratilgan.

O`zbekiston va Qozog`istonda joylashgan logistika markazlari multimodal xarakterga ega. Multimodal logistika markazlari transport tizimini rivojlantirish bilan birga yangi ixtisoslashgan ishlab chiqarishni shakllantiradi, yirik transmilliy korporatsiyalar ishlab chiqarishini va zamonaviy texnologiyalarning hududga

ko`chishini ta`minlaydi. Barcha qo`shti sohalar: moliya sektori, sanoat, qishloq xo`jaligi va ijtimoiy ta`minot sohalari foyda olishga qaratilgan, raqobatli va innovatsion taraqqiyot natijasida tez rivojlanadi. Bu esa o`z navbatida hududda kapital, sifatli mahsulotlar va xom ashyo, to`planishiga va kompleks sanoat markaziga aylanishiga sabab bo`ladi. Qozog`iston hududida tashkil qilingan multimodal logistika markazlari dengiz portlari asosiga qurilgan bo`lsa, O`zbekistonda tashkil qilingan ushbu markazlar “quruq portlar” asosiga tashkil qilingan. Logistika markazi O`zbekistonni va mintaqani jahon bilan bog`lash vositasi hisoblanadi. Uni qay tarzda rivojlantirish va unga qanday yondashish bizni bevosita jahon amaliyotini o`rganishga undaydi.

Yurtimizda ko`p jihatdan Osiyo tajribasini mahalliy sharoitlarga moslashtirilib foydalanishga harakat qilinmoqda. Navoiy viloyatida tashkil qilingan xalqaro multimodal logistika markazi o`zida innovatsion-industrial, transport logistika va ijtimoiy rekreatsion hablarni mujassamlashtiradi. Ushbu kompleksda yuk tashish, yuklash va bo`shatish, qayta ishslash, yig`ish, turlarga ajratish, qadoqlash, markirovka, tanlab olish, ishlab chiqarish, mahsulot tekshirish, innovatsion texnologiyalar ishlab chiqarish, bozorlashtirish, marketing, ilmiy-tadqiqot ishlari, taqsimlash, eksport-import, yarmarka, reklama, yuzma-yuz savdo, moliyaviy operatsiyalar, o`quv va amaliyot, ishlab chiqarishni qo`llab-quvvatlash va shu kabi bir qator xizmatlar amalga oshiriladi.

–mintakaviy xo`jaliklarda bozorga yo`nalganlikning kuchayishi; tashqi iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi.yalpi ichki mahsulotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik,ulushining,oshishi; to`g`ridan-to`g`ri xorijiy investitsiyalar hajmining o`sishi; iqtisodiyotning xalqaro kooperatsiyaga integratsiyalashuvi; yirik xalqaro korporatsiyalarning O`zbekistonning sanoat, energetika, transport va kommunikatsiya hamda boshqa real tarmoqlarga faol jalb etilayotgani [6].

So`nggi yillarda hududiy moddiy-texnik baza sezilarli ravishda kengaytirildi. Hududlarning kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga mas`ul mahalliy hokimiyat va boshqaruв organlarining vakolat va javobgarliklari oshirildi. Natijada sanoat va

iste'mol tovarlari ishlab chiqarish va chakana savdo sohalarida hududlar orasidagi tafovutlar sezilarli ravishda kamaydi. Ammo aholi jonboshiga to'g'ri keladigan yalpi hududiy mahsulot hajmi, qishlok xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarish va pullik xizmat ko'rsatish bo'yicha differensiatsiyalashuv kuchaymoqda. Bunday tafovutlarning oldini olish maqsadida iqtisodiy o'sish, tadbirkorlik faoliyati va innovatsion jarayonlar intensivligi yuqori ayrim hududlarda ishlab chiqarish korxonalarini konsentrlashtirish orqali "o'sish nuqtalari" effekti yuzaga keltiriladi. Bunday xo'jalik yuritish institutlari sanoat, innovatsiyalar va fano'rtasida integratsiya aloqalarini o'rnatish vositasida korxonalar va ilmiy-tadqiqot institutlarining joylashuvidanagi geografik nomuvofiqlikni bartaraf etishni ta'minlashi lozim [7].

Hududiy rivojlanishda YAIM jalb etilayotgan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi, tashqi savdo aylanmasining o'sishi tashuvlar tizimi va transport kommunikatsiyalarining rivojlanganligiga to'g'ridan-to'g'ri proporsional bo'ladi. O'zbekiston avtomobil va temir yo'llarining uzunligi bo'yicha dunyo mamlakatlarining etakchi o'ttizligidan joy olganiga qaramasdan, o'zbek importchilarining har bir konteyner hisobidagi xarajatlari SHarqiy Evropa va Markaziy Osiyo mamlakatlari importchilarinikiga nisbatan 2,8 baravarga, eksportchilarinikiga nisbatan esa 2,5 baravarga ko'pdır. Solishtirish uchun: Xitoy, Eron, Turkiya eksportchilarning xarajatlari bizdagiga nisbatan mos ravishda 6, 4, 3 baravarga kamdir. Yuklarni tashish xarajatlarining yuqoriligining asosiy sabablari infratuzilmaning quyi sifati, jismoniy va huquqiy to'siqlarning mavjudligi, dengiz portlarining yiroqligidir. Transport xarajatlarini kamaytirish, tashuvlar tizimi ko'rsatkichlarini sanoat, yuk aylanmalari va yo'lovchi tashuvlari rivojlanish tendensiyalari bilan muvofiqlashtirish logistika markazlarini vazifalaridan bo'lib, ular o'ziga xos "o'sish nuqtalari" hisoblanadi. Transport tashuvlari, bojxona va ma'muriy infratuzilmalari tovar va xizmatlarning raqobatbardoshligini "vaqt – narx – sifat va tashuv xavfsizligi" koordinatasi bo'yicha ta'minlashi zarurligi isbotlangan. Buni misol tariqasida Transport logistikasi rivojlangan mamlakatlar, jumladan, AQshda, bu kabi muammolar iqtisodiyot va aholi turmush darajasining yuqori rivojini ta'minlash imkoniyati

cheklangan segmentlarga alohida e'tibor qaratish orqali bartaraf etiladi. Ta'kidlash joizki, so'nggi yigirma yil davomida O'zbekistonda transport va transport kommunikatsiyalari rivoji iqtisodiy o'sish sur'atlaridan oshib ketdi. Yirik avtomobil va temir yo'llar qurilishi natijasida "SHarq-G'arb" va "Janub-SHimol" iqtisodiy o'qlari bo'yab ishlab chiqarish kuchlarining konsentratsiyasi yangi bosqichga chiqdi shu o'rinda O'zimizning mamlakatimizda faoliyat olib borayotgan "Navoiy" xalqaro aeroporti negizida tashkil etilgan transport logistika markazining boshqa transport turlariga bo'lgan multiplikativ ta'sirini alohida ta'kidlash zarur. Ushbu mintaqalararo xabning faoliyati natijasida avtomobil va temir yo'l transportiga bo'lgan talab kuchaydi. Milan yoki Seuldan 5 soat davomida etib kelgan yuk O'zbekiston yoki Markaziy Osiyodagi oxirgi manziliga eng qisqa fursatlarda etkazilishi zarur, havo lanerida kelgan har qanday yuk o'z egalariga be talofat va bezarar yetkazib berilmoqda. Multimodal xab geografikjihatdan qulay va transport kommunikatsiyalari konsentrashgan hududda joylashishi maqsadga muvofiqligi. Bundan tashqari, bunday istiqbolli loyihalarning muvaffaqiyati davlatning bosh islohotchi va investor sifatidagi har tomonlama qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlarini hamda xalqaro tajribaga ega transport kompaniyalarining hamkorlik ko'rinishidagi investitsion faolligini ham talab etmoqda.

Avtomobil, temir yo'l va havo transporti, energetika, sanoat, ishlab chiqarish resurslari va malakali ish kuchini o'zida jamlagan hududda joylashgan "Navoiy" erkin iqtisodiy industrial hududi mamlakatimiz hukumatining qo'llab-quvvatlashi oqibatida, shuningdek, O'zbekistonning muhim xorijiy investorlaridan biri bo'lgan va dunyoda havo yuk tashuvi bo'yicha birinchi o'rinni egallab turuvchi "Kogeap Air" kompaniyasi bilan yaqin hamkorlik qilish natijasida qo'yilgan maqsadlar sari dadil qadamlar qo'yilmoqda. O'zbekiston Respublikasining xalqaro maydondagi transport-tranzit potensialini yuksaltirishga, jumladan, "Navoiy" erkin iqtisodiy industrial hududini tezkor transport tashuvlari bilan ta'minlashga qaratilgan mintaqalararo logistika markazining negizini tashkil etgan "Navoiy" xalqaro aeroporti qisqa vaqt davomida jahon bo'yab yuk tashuvlarizimining muhim bo'g'iniga aylandi. Ta'kidlash lozimki, "Navoiy" xalqaro aeroporti negizida tashkil etilgan intermodal logistika markazi

"Navoiy" erkin iqtisodiy industrial zonasida ishlab chiqarilayotgan import o'rnini bosuvchi va eksportbop tovarlarni Evropa va Osiyo bozorlaridagi iste'molchilariga tezkor ravishda etkazish orqali ularning xalqaro raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. SHu sababli logistika markazi – "Navoiy" erkin iqtisodiy industrial zonasi rivojining garovi, desak mubolag'a,qilmagan,bo'lamiz [9].

2.ASOSIY QISM.

2.1. Adabiyotlar sharxi.

Bitiruv malakaviy ishini bajarishda bir nechta adabiyotlardan va manbalardan foydalandim. Quyida eng asosiy ma'lumotlar olingan adabiyotlar va manbalar hamda ulardan olingan ilmiy ma'lumotlar sharxi keltirilgan.

Hozirgi kunda yuksak darajada rivojlanayotgan mamlakatimizning har bir sohasi uchun xizmat qilmoqda har bir inson har sohada faoliyat yuritmasin yuksak ma'naviyatni talab qilishini nazarda tutadi.

Prizendimiz Mirzoyoyev SH.M."2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlat strategiyasi haqida" belgilab berildi „Harakatlar strategiyasi rivojalanishning yangi davridir [2].

2018-yil 6-martdagi PQ-3589- son qarorida mamlakatimizda avtomobil transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, tashkiliy o'zgarishlarni amalga oshirish, avtotransport xizmatlari bozorini shakllantirish, yuk va yo'lovchilar tashishlar xavfsizligini ta'minlash maqsadida „Avtomobil transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida" qaror qabul qilindi [3].

Prezidentimizning tashabbusi bilan Jizzax viloyatida qurillayotgan yangi avtomobil zavodi albatta iqtisod uchun katta yordam beradi va xalqimizning ish bilan ta'minlayd.

E. Karimov "Avtotransport vositalarida yuk tashish. Ushbu qo'llammada transport asosiy harakat vositasi, yuk va yuk oqimi, harakat- lanuvchi tarkibdan foydalanishda yo'l sharoitlari, harakatlanuvchi tar- kibning texnik-ekspluatatsion ko'rsatkichlari, harakatlanuvchi tarkibning ishini tashkil qilish, avtobillarda yuk tashishni rejalashtirishda iqtiso- diy-matematik usullar va EHMni qo'llash, yuk tashishni tashkil qilish va tijorat ishlari, yuk tashishda operativ rahbarlik qilish, avtomobil trans- portida yuk ortish-tushirish ishlarini tashkil qilish va mexanizatsiyalash, yuklarni konteyner va paket usulida tashish, shaharlararo va xalqaro yuk tashish, xalq xo'jaligi va turli tarmoqlarning yuklarini tashish va logistikaning maqsadli hamda uslubiy asoslari, logistikaning tamoyillari, vazifalari, tizimlari, logistika usullarining uslubiy xususiyatlari, boshqaruv bo'yicha logistik yondashuv,

ishlab chiqarish logistikasi, logistikada axborot texnologiyalari, omborlar jarayonlarini logistika qismlari bilan tashkil- lashtirish, logistik xizmat ko'rsatishning masalalari, me'yoriy ma'lumotnomalar hujjatlari, o'quvchilar bilimini tekshirishga oid mustahkamlash uchun savollar va testlar bilan yoritilgan [4].

O.Hamraqulov, Sh.Magdiyev "Avtomobilarning texnik ekspluatatsiyasi" darsligida amaliy faoliyatdagi avtomobillar texnik ekspluatatsiyasining holati. Ya'ni avtomobilarga texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlash tenologiyasi, hamda avtotransport korxonalarida ishlab chiqarishda qo'llaniladigan texnologik jihozlar, harakatdagi tarkibga moddiy-texnik ta'minotni tashkil qilish va resurslarni tejash usullari, avtomobil transportini turli ekstremal tabiiy-iqlim va yo'l sharoitlaridagi, asosiy ishlab chiqarish bazalaridan ajralgan holdagi, hamda maxsuslashtirilgan harakatdagi tarkibning ekspluatatsiyasi, avtomobil transportining atrof-muhitga zararli ta'sirining yo'nalishlari va ularni kamaytirish yo'llari keltirilgan [5].

X. Mamatov "Avtomobillar" o'quv darsligining 1-2-qismlarida avtomobil mexanizmi va tarmoqlarining vazifasi, umumiyligini tuzilishi, ishlash uslubi hamda konstruktiv xususiyatlari, hozirgi vaqtida jumhuriyatimizda ko'p tarqalgan avtomobilarning konstruktsiyasi misolida ularning shassisiga kiruvchi qismlari tahlil va talqin etilgan. Shuningdek, unda xususan avtomobilning shassisiga taalluqli bo'lgan kuch uzatma, yurish va boshqarish qismlariga kiruvchi tizim va mexanizmlarning vazifasi, ishlashi va ishlash sharoiti tavsiflangan bo'lib, ularning konstruktiv xususiyatlari esa taqqoslash uslubi orqali bayon etilgan. Bundan tashqari avtomobillarni umumiyligini tuzilishiga oid bo'lgan kuch uzatmasi tarkibiga kiruvchi asosiy uzatma, differentsiyal va yarim o'qlarning konstruktiv xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan [6].

G'.M. Qosimov "Transport korxonalarida menejment" darsligi transport va texnika xizmati ko'rsatish korxonalarida menejmentning predmeti va tahlil usuli, boshqarish jarayonlarini tashkil etishning nazariy asoslari, boshqarish jarayonlarini tashkil etish xususiyatlari, korxonalar faoliyatini tejamli tashkil etish asoslari, avtomobil transporti xizmati ko'rsatish korxonalarining foydalanish xizmati ko'rsatish bo'linmasida boshqarish jarayonini tashkil etish, avtomobil transporti xizmati ko'rsatish

korxonalarining texnika xizmati ko'rsatish bo'linmasida boshqarish jarayonini tashkil etish, aholi avtomobillariga texnika xizmati ko'rsatish korxonalarida texnik xizmat ko'rsatish va joriy ta'mirlashni tashkil etish, transport va texnika xizmati ko'rsatish korxonalarida ish joyini tashkil etish va ularni texnologik loyihalash, atrof muhitni muhofaza qilish va tabiot boyliklaridan oqilona foydalanish bo'yicha chora-tadbirlarni rejalashtirish kabi mavzular bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan [7].

E.Karimov Avtotransport vositalarida yuk tashish va avtotransaport logistikasi sharq nashiryoti-matbaa akiyadorlik kopmaniyasi bosh tahririysi Toshkent 2013 yil.[8].

G'.Yo. Yormatov, O.R. Yuldashev, A.L. Hamrayev "Hayot faoliyati xavfsizligi" darsligida ob - havo sharoiti va inson faoliyati, ishlab chiqarish muhitining ob-havo sharoiti, sanoat korxonalarida shamollatish qurilmalariga qo'yiladigan asosiy talablar, changlangan havoni tozalash qurilmalari, shovqindan saqlanish, texnika vositalarida xavf - xatarlar va ulardan muhofazalanish, elektr xavfsizligi, mehnatni muxofaza qilish qonunlari va tashkiliy asoslari va yong'inni oldini olishga qaratilgan chora - tadbirlari to'g'risida kerakli ma'lumotlar berilgan[11].

2.2.Tashishni tashkil etishning asosiy elementlari.

Yuk tashish uchun quyidagi asosiy(transport jarayoniga tegishli bo'lgan) va yordamchi jarayonlarni bajarishga to'g'ri keladi: yuklarni tashishga tayyorlash, transport vositasiga yuklash va undan tushirish, ba'zan esa omborxonalarda ma'lum muddatda saqlash va shu kabiladir.Yuklarni tashishga tayyorlashda ular ma'lum tartibda joylashtiriladi, saralanadi va tashish yo'naliishlariga ajratiladi, yuklarning ogirligi tarozidatortiladi, sungra ma'lum belgilar kiritilib,tamgalanadi, paketlashtiriladi,tashish xujjatlari rasmiylashtiriladi va x.k.Yuk yuklash va tushirish ishlari mexanizmlar yordamida yuklarning xususiyatini xisobga olib bajariladi. Bunda yuklash va tushirish ishlarida xarakatlanuvchi tarkiblarning me'yoridan ortikcha turib kolmasligiga e'tibor berish kerak.Transport jarayonida yuklar ma'lum masofaga tashilganda transport ishi bajariladi. Transport jarayonining birligi qilib katnov qabul qilinadi. Katnov deb, o'z ichiga yukni yuklash, tashish, tushirish va yuksiz yurish jarayonlarini olgan tugallangan transport jarayoniga aytildi.Transport jarayonlarini bajarish ratsional yo'naliishlarni to'zish, yuk xususiyatlari va ishlatish sharoitlariga mos

xarakatlanuvchi tarkibni tanlash, ularni anik yo'nalish buyicha grafiklar asosida ishlatish va shu kabi tadbirlar orqali transport jarayonlarida xarajatlar sarfi kamayadi. Yuklarni omborxonalarda saqlashda, yuk sifatining bouzilmasligini ta'minlashda va ombor ichidagi ishlarni mexanizmlarda bajarishga axamiyat berish kerak.

2.3.Tashishni tashkil etishning asosiy prinsplari.

Jamiatning ijtimoiy iqtisodiy va madaniy aloqalarini rivojlantirishda, chet mamlakatlar urtasida iqtisodiy va madaniy aloqalarni o'rnatishda, mamlakat mudofa kudratini oshirishda transport katta axamiyatga ega. Sanoat, qurilish va kishlok xo'jaligi tarmoqlarining o'zluksiz rivojlanishi, xo'jaliklararo iqtisodiy aloqalarning mustaxkamlanishi transport vositalarining unumli ishslashini takozo qiladi. Transport xalq xo'jaligi tarmoqlarini o'zaro boglovchi vositadir.

Xom ashylar, asbob-uskunalar, yarim tayyor maxsulotlar, yoqilgi va boshqa turli xil maxsulotlarni sanoat tarmoqlari va korxonalari va korxonalar urtasida tashitsh transport vositalar yordamida amalga oshiriladi. Transportdan korxonalar ichidagi ishlab chiqrish jarayonida xam keng foydalilanadi. Uning yordamida korxona ichida yuk tashiladi. Masalan, turli xom ashylar, yarim tayr maxsulotlar, yoqilgi, shunga uxshash yuklar omborlardan ish joyiga, tayyor maxsulotlar esa omborlarga tashiladi va xokazo. Xalqaro aloqalarni kengaytirish va mustaxkamlashda xam transport katta axamiyatga ega. Xalqaro savdo, turistik va boshqa aloqalarning rivojlanishi, fan va texnika, madaniyat va sport soxalaridagi munosabatlarning yuksalishi transport vositalari va aloqa yo'llarining rivojlanishiga ko'p jixatdan boglikdir. Bulardan tashkari mamlakatimiz ichida va xamustlik mamlakatlari urtasida tovar aylanishining rivojlanishida xam transportning axamiyati kattadir. Axolini sanoat va ozik-ovkat mollari bilan o'z vaktida ta'minlash transportning asosiy vazifalaridan biridir. Transportning mamlakat mudofaa kobiliyatini mustaxkamlashdagi axamiyati xam kattadir. Shu bilan birga mamlakatimizda sanoat va transport turlarining rivojlanishi natijasida, fan va texnikaning sunggi yutuklari asosida sanoat-transport tarmoqlari (O'zDEU avtokorxonasi, «SamKochavto» qo'shma korxonasi va x.k.) vujudga kelib muttasil yuksalib bormokda. Yuk tashish uchun quyidagi asosiy(transport jarayoniga tegishli bulgan) va yordamchi jarayonlarni bajarishga to'g'ri keladi: yuklarni tashishga

tayyorlash, transport vositasiga yuklash va undan shirish, ba'zan esa omborxonalarda ma'lum muddatda saqlash va shu kabilardir.Yuklarni tashishga tayyorlashda ular ma'lum tartibda joylashtiriladi, saralanadi va tashish yo'naliishlariga ajratiladi, yuklarning ogirligi tarozidatortiladi, sungra ma'lum belgilar kiritilib,tamgalanadi, paketlashtiriladi,tashish xujjatlari rasmiylashtiriladi va x.k.Yuk yuklash va tushirish ishlari mexanizmlar yordamida yuklarning xususiyatini xisobga olib bajariladi. Bunda yuklash va tushirish ishlarida xarakatlanuvchi tarkiblarning me'yоридан ortikcha turib kolmasligiga e'tibor berish kerak.Transport jarayonida yuklar ma'lum masofaga tashilganda transport ishi bajariladi. Transport jarayonining birligi qilib katnov qabul qilinadi. Katnov deb, o'z ichiga yukni yuklash, tashish, tushirish va yuksiz yurish jarayonlarini olgan tugallangan transport jarayoniga aytildi.Transport jarayonlarini bajarish ratsional yo'naliishlarni to'zish, yuk xususiyatlari va ishlatish sharoitlariga mos xarakatlanuvchi tarkibni tanlash, ularni anik yo'naliish buyicha grafiklar asosida ishlatish va shu kabi tadbirlar orqali transport jarayonlarida xarajatlar sarfi kamayadi. Yuklarni omborxonalarda saklashda, yuk sifatining bo'zmasligini ta'minlashda va ombor ichidagi ishlarni mexanizmlarda bajarishga axamiyat berish kerak.

2.4. Yuk va uning turlari.

Transport yuki tovar va taradan tashkil topadi. **tara** deb, yukni ortish-tushirish, saqlash jarayonlarida uning buzilishidan asraydigan va bu jarayonlarni osonlashtiradigan har xil qurilmalarga aytildi (yashiklar, tagliklar, konteynerlar, shisha idishlar va hokazo). Taralar qattiq, yarim qattiq va yumshoq turlarga bo'linadi. Yukning o'z og'irligi – **netto**, taraning og'irligi – **tara** va taraning og'irligi **brutto** deyiladi.

Transport yuklari quyidagi turkumlarga ajratiladi:

1. Tarasi bo'yicha:

- tarasiz yuklar (qum, tuproq va hokazo);
- tarali yuklar (uy-ro'zg'or buyumlari, shisha idishlar va hokazolar, yashik super tara hisoblanadi).

2. O'lchami bo'yicha:

- gabaritli yuklar;

- gabaritsiz yuklar;
- gabaritsiz yuklar (eni 2,5 metrdan, balandligi 4 metr dan, avtomobil orqa bortidan 2 metrdan ortiq chiqadigan yuklar).

3. Bitta yukning og‘irlik o‘rni bo‘yicha:

- normal yuklar (donali yuklar uchun bir yuk og‘irligi 250 kg gacha, yumalaydigan yuklar uchun 400 kg dan oshmaydigan yuklar).

4. Yuk ortish-tushirish ishlarini bajarish usuli bo‘yicha:

- sochiluvchan yuklar (shag‘al, qum, tuproq va hokazo);
- donali yuklar;
- quyladigan yuklar(suyukliklar).

5. Avtomobil yuk ko‘taruvchanligidan foydalanish darajasi bo‘yicha yuklar 4 sinfga bo‘linadi:

6. Xavfliligi bo‘yicha yuklar 7 guruhga bo‘linadi.

1-g u r u h – kam xavfli yuklar (qurilish materiallari va shu kabilar).

2-g u r u h – tez alanganadigan yuklar (benzin, atseton va shu kabilar).

3-g u r u h – issiq va changlanadigan yuklar (sement, ohak, asfalt va hokazo).

4-g u r u h – quydiradigan suyuqliklar (kislotalar, ishqorlar va hokazo).

5-g u r u h – siqilgan va suyultirilgan gazlar.

6-g u r u h – o‘lchami bo‘yicha xavfli yuklar.

7-g u r u h – zaharlaydigan, radioaktiv va portlaydigan moddalar.

7. Yuk tashish va saqlash sharoitlari bo‘yicha:

- oddiy yuklar;
- tez buziladigan yuklar;
- o‘tkir hidli yuklar;
- axlat va supurindi yuklar;
- tirik yuklar (qoramol va shu kabilar).

8. Tashqi muhit ta’siridan saqlash sharoitlari bo‘yicha:

- oddiy yuklar (tashqi muhitdan asrash shart emas);
- tashqi muhit ta’siridan asralishi lozim bo‘lgan yuklar (yog‘ingarchilikdan, temperaturadan, urilish va tebranishlardan saqash lozim bo‘lgan yuklar).

Yuklarni tashishda ularning xususiyatlarini hisobga olish maqsadida ularga maxsus tamg‘alar qo‘yiladi.

Yuk tamg‘alari 4 turga bo‘linadi.

- tovar tamg‘asi;
- yuk tamg‘asi;
- transport tamg‘asi;
- maxsus tamg‘a.



2.5. Yukning aylanishi va yuk oqimi.

Yuk avtomobil transporti ishini ikkita asosiy ko‘rsatkich xarakterlaydi:

1. Yuk tashish hajmi.
2. Yuk aylanishi.

Yuk tashish hajmi – bu ma’lum rejalashtirilgan muddatda tashilgan yoki tashilishi lozim bo‘lgan yuk miqdoridir. Yuk tashish hajmi tonnalarda o‘lchanadi.

Yuk aylanishi – bu ma’lum muddatda bajarilgan yoki bajarilishi mumkin bo‘lgan transport ishidir. Yuk aylanishi tonna kilometrda o‘lchanadi.

Yuk oqimi deb, ma’lum muddatda yo‘l trassasining faqat yo‘nalishi bo‘yicha tashiladigan yuk miqdoriga aytiladi.

Yuk tashish hajmi va aylanishi, yuk oqimi kattaligi, tarkibi, bajarilish muddati va notekislik koeffitsienti bilan xarakterlanadi.

Yuk tashish kattaligi bo‘yicha – yalpi, partiyalab va mayda partiyalar

bilan tashishga bo‘linadi. Yuk tashish partiyasi deb, ma’lum bir transport hujjati bilan tashishga beriladigan yuk miqdoriga aytildi.

Yalpi yuk tashish deb, juda ko‘p miqdordagi bir xil tarkibli yuklarni ma’lum yo‘nalish va vaqtda tashishga aytildi. Yukning tarkibi uning nomini va sinfini belgilaydi. Tashish muddati esa yuk tashishning boshlanishi, tamom bo‘lish kunlarini va uning tezkorligini ko‘rsatadi.

Muddati bo‘yicha yuk tashish doimiy, vaqtinchalik va mavsumiy xarakterda bo‘ladi. Doimiy yuk tashish yil davomida amalga oshirilsa, vaqtinchalik yuk tashish ma’lum bir vaqtda bajariladi. Mavsumiy yuk tashish yilning ma’lum bir vaqtida bajariladi. Yuk tashish hajmi va aylanishi vaqt mobaynida o‘zgarib turadi. Bu o‘zgarishlar notekislik koeffitsientlari bilan xarakterlanadi. Yuk tashish hajmi (Q) va (P) aylanishi.

$$h_Q = \frac{Q_{\max}}{Q_{o^*rt}}; \quad h_P = \frac{P_{\max}}{P_{o^*rt}};$$


Yuk tashish hajmi va yuk aylanishi notekisligi, harakatlanuvchi tarkib ishining bir me’yorda bo‘lishiga ta’sir qiladi. Bu notekislikning ta’sirini avtotransport korxonalarini ish rejasida har xil yo‘llar bilan kamaytirishga harakat qilinadi. [12].

3.TEXNALOGIK QISM.


3.1. Yo`nalish turlari.

Harakatlanuvchi tarkibning yo`nalishi, maksimal ish unumi bilan yuk punktlari orasida ratsional harakatlanish tizimiga aytildi. Yo`nalishlar tavsifi yuk jo`natuvchi va qabul qiluvchi punktlarning joylashishi va tashiladigan yuk partiyasi hajmi, avtotransport korxonalarining joylashishi va shu kabilarga bog`liq bo`ladi. Harakatlanuvchi tarkibning yo`nalish harakati mayatnik va halqasimon yo`nalishlarda amalga oshiriladi. Yo`nalish uzunligi, harakatlanuvchi tarkibning yo`nalishda boshlang`ich punktidan oxirgi punktgacha bosib o`tadigan masofasiga aytildi. Mayatnik yo`nalishda yuk tashish bir trassada joylashgan yuk punktlari orasida bajariladi. Mayatnik yo`nalishlar uch turga bo`linadi.

1.Bir tomonga yukli, qaytishda yuksiz yuradigan yo`nalish.




2.Bir tomonga yuk tashiladigan va qaytishda o`tilgan masofaning bir qismigacha yukli yuriladigan yo`nalish.




Halqasimon yo`nalishlar yuk tashishda harakatlanuvchi tarkibning yuksiz yurish masofasini kamaytirish maqsadida tashkil qilinadi. Halqasimon yo`nalishda yuk punktlari bir trassada joylashmaydi. Halqasimon yo`nalishlarning quyidagi uch xilturimavjud.

1. Oddiy halqasimon yo`nalish.



1.Bir tomonga yukli, qaytishda yuksiz harakatlanadigan mayatnik yo‘nalishlarda harakatlanuvchi tarkib ishini ifodalovchi texnik-ekspluatatsion ko‘rsatkichlarni aniqlash.



3.2. Harakatlanuvchi tarkib tipini tanlash.

Harakatlanuvchi tarkib tipini tanlash yo‘nalishda ishlash uchun bir necha xil avtotransport vositalaridan eng maqsadga muvofig‘ini aniqlash demakdir. Harakatlanuvchi tarkib quyidagi xususiyatlarga qarab tanlanadi.

- tashilayotgan yukning xususiyati;
- yo‘l va iqlim sharoitlariga;
- yuk ortish-tushirish mexanizmining turi va quvvati;
- yuklarni tashish tannarxi;
- harakatlanuvchi tarkiblar ish unumi.

Tashishni tashkil etishda transport vositasini tanlash.

Ba’zi hollarda harakatlanuvchi tarkib turi, tanlanayotgan harakatlanuvchi tarkiblar unumдорликлари bir xil bo‘ladigan masofaga qarab ham tanlanadi.

Avtomobil transporti umumfoydalanadigan va tarmoq avtomobil transportiga ajratiladi.Umumfoydalanadigan avtomobila transportiga markazlashgan yuk tashishlarni amalga oshirish vazifasi yuklatilgan. Umumfoydalanadigan avtomobil transporti tashkilot va korxonalarining qaysi tarmoqqa qrashlilitgidan kat’iy nazar yuklarini tashib beradi. Tarmoq avtomobil transporti ma'lum bir tarmoqqa – shirkat va

uyushmalarga qrashli bo'lib, shu tarmoqning korxona va tashkilot qurilishlariga xizmat qiladi. U bu tarmoqqa qrashli korhona, tashkilot va qurilishlarning barcha turdag'i texnologik va xo'jalikdagi yuk tashishlarni bajaradi. Tashishlarni bajarish uchun avtotransport korxonalarini tashkil qilinadi. umumfoydalanadigan avtomobil transportini boshqarishda xududiy ishlab chiqrish tizimidan foydalaniladi.

Avtotransport korxonaarini boshqarishda quyidagilar ta'minlanishi lozim:

- tashish jarayonining bajarilishi;
- texnik iqtisodiy ko'rsatkichlarni rejalashtirish;
- mexnat va ish xakini tashkil qilish;
- buxgalteriya xisobi va moliyaviy faoliyat;
- moddiy texnika ta'minoti;
- mutaxassislarni jamlash va tayyorlash;
- umumiylis ish yuritish va xo'jalik ishlari.

